



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2021- YIL YANVAR-OKTABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida Viloyat korxonalarini tomonidan 5 trln. 181,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,6 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 25,6 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 16,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 167,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	220,9	232,1	11,2
Neft, ming t.	66,6	70,8	4,2




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	19,4	20,4	1,0
Chaqiq tosh, ming t.	93,8	68,6	-25,2

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar - oktabr

FHI,% da



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 trln. 643,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,6 % ini tashkil etdi.

2020-yil
yanvar-oktabr


87,7%

2021-yil
yanvar-oktabr

89,6%




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,7 % (19,8 %) va quyi texnologiyalisi – 65,3 % (67,3 %)ni tashkil etdi.


■ 2020- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,9 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 148,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,9 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 213,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,6 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 118,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,4 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 104,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,1 % (2020- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 188,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,4 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 25,2 % ga kamaygan), 38,6 ming tonna kalava ip (30,6 % ga oshgan), 52,4 ming tonna neft bitumi (12,9 %), 21,7 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (2,5 m.) hamda 31,6 ming tonna paxta chigiti (6,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	20,5	15,4	-5,1
Kalava ip, ming t.	29,6	38,6	9,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut), ming t.	8,6	21,7	13,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	112,4	97,2	-15,2
Aroq, ming l.	738,8	364,0	-374,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	6,0	2,7	-3,3

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 43,9 % ga oshgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,9 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 2,1 m.ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 89,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 8,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 151,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 415,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 5,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1054,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 66,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 81,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 32,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 161,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 39,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 17,3 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1823,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,3 %, fizik hajm indeksi 125,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 293,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 172,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 24,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 63,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,1 % ni, fizik hajm indeksi 99,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 377,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 55,2 % ga oshgan.


Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 200,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 27,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 293,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 125,6 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	61,8	158,0	96,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	27,9	29,2	1,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 77,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	3087,4	4192,9	1105,5
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	17593,2	19837,3	2244,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 61,4 % ga, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 35,8 % ga shuningdek, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar 12,8 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 trln. 909,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 118,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2020-yil
yanvar-oktabr

53,5%

2021-yil
yanvar-oktabr

47,5%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil
yanvar-oktabr

46,5%

2021-yil
yanvar-oktabr


52,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,1 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 3,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 20,4 % ni va Denov tumani 14,6 % ni, Sho'rchi tumani 14,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (118,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Muzrabot (189,6 %), Bandixon (175,5 %), Jarqo'rg'on (145,0 %), Sariosiyo (138,1 %), Angor (131,5 %), Sho'rchi (128,8), Uzun (126,2 %) hamda Qiziriq (123,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib, 20,4 % shuningdek, Denov tumanida 14,6 %, Sho'rchi tumanida 14,5 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

1 296,3 mlrd. so'm
2019- yil yanvar- oktabr

1 487,7 mlrd. so'm
2020- yil yanvar- oktabr

1 909,6 mlrd. so'm
2021- yil yanvar- oktabr



Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahriga to'g'ri kelib 19,8 % ni, shuningdek, Jarqo'rg'on tumani 15,6 % ni, Sariosiyo tumani esa 11,2 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati

2019- yil

3 427,6 mlrd. so'm

2020- yil

3 810,2 mlrd. so'm

2021- yil

5 181,1 mlrd. so'm



2019- yil


107,9 %

2020- yil

108,6 %

2021- yil

110,3 %




FHI, % da


mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (5 523,0 ming so'm), Jarqo'rg'on (3 615,1 so'm), Termiz (2 992,7 ming so'm), Sariosiyo (2 703,1 ming so'm), Sherobod (2 314,9 ming so'm) hamda Sho'rchi (1 959,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 916,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Surxondaryo Viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 706,4 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 2 105,1 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1 290,7 ming so'mni, Termiz tumanida – 1 170,7 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati




o'sish sur'ati

ming so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 4 663 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 876 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,8 % i) Termiz shahriga, 542 tasi (11,6 %) Denov tumaniga, 350 tasi (7,5 %) Sho'rchi tumaniga, 295 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga va 296 tasi (6,3 %) Termiz tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

